

ABU ALI IBN SINA'S VIEWS ON THE ISSUE OF KNOWLEDGE

Nunnanova Gulzoda Bekpulatovna

Teacher of the Department of National Ideology, Fundamentals of Spirituality and Legal
Education, Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, Republic of Uzbekistan
Email id: g.nunnanova77@mail.ru

Annotation: This article discusses Abu Ali Ibn Sina's views on the process of cognition, its stages, the organic connection between emotional and mental cognition, as well as Ibn Sina's views on the process of knowing the world and acquiring knowledge through discovery.

Keywords: Cognition, emotional cognition, mental cognition, intuition, memory, perception, discovery, scientific knowledge

ABU ALI IBN SINONING BILISH MASALASI HAQIDAGI QARASHLARI

Nunnanova Gulzoda Bekpo'latovna

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi,
Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahri, O'zbekiston Respublikasi
Email id: g.nunnanova77@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Ali Sinoning bilish jarayoni, uning bosqichlari, hissiy va aqliy bilish o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, shuningdek Ibn Sino nazarda tutgan kashfiy yo'l bilan olamni bilish, bilimlarni qo'lga kiritish jarayoni haqidagi qarashlari borasida mulohaza yuritilgan

Kalit so'zlar: bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, sezgi, xotira, idrok, kashf, laduniy ilm

Insoniyatga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu o'z bilimini doimo chuqurlashtirishga, uning ko'laminu yanada kengaytirishga harakat qilishidir. Garchi muayyan signal va axborotlar almashinushi, hissiy bilishdan kelib chiqib, harakatlanish tirik tabiatning barcha shakllariga xos bo'lsada, bilimga intilishlik, borliqni aqlan bilishga, o'zini anglashga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj faqat insonga xos hisoblanadi. Borliqni o'rganish va bilish bilan bir qatorda, uning ajralmas bir bo'lagi sifatida inson o'zini ham anglab boradi. Bilish natijasida qo'lga kiritilgan bilimga tayangan holda insoniyat dunyonи bilish, tushunish va unda erkin harakatlanish imkoniyatini shakllantirdi. Natijada bilim va uning shakllari to'siqlarni (tarixda muayyan davrlarda ilm-fan rivojiga qarshiliklar bo'lgan) yengib insoniyat uchun qadriyatga aylana bordi.

Bilim o'z-o'zidan hosil bo'lmasdan, u bilishning mahsulidir. Bilish esa muayyan bosqichlardan o'tuvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Inson bilimining dastlabki manbai hissiy bilish bo'lib, bu bosqich bilishda asosiy ahamiyatga ega bo'lsada voqelikni to'la aqlan bilishimizda yetarli emas. Hissiy bilish sezgi a'zolarimiz beradigan ma'lumotlar asosida hodisani bilishdan, aqliy bilish esa shu hodisani kelib chiqishi negizi, o'zaro bog'lanishi, ichki

qonuniyatlarini ya’ni mohiyatni aniqlashdan, hamda shu aniqliklar asosida bilishimiz qaratilgan obyektni tushunishdan iborat. Umuman olganda muayyan obyekt haqidagi inson hissiy bilishini aqliy bilishga o’tishi sifat bosqichi-yangi bilim hosil bo’lishi jarayoni hisoblanadi.

Bilish masalasi falsafaning qadimdan to hozirgi davrga qadar tahlil etib kelinayotgan muhim masalalaridan biri hisoblanib, bunda “bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi tadqiq qilinadi”¹. Falsafiy bilimlarning rivojida aynan bilish masalasi tahlilida Markaziy Osiyo Uyg’onish davri qomusiy olimlarining fikrlari ahamiyatlidir. Zero Markaziy Osiyo Uyg’onish davri madaniy-ma’rifiy jihatdan yuqori darajadagi taraqqiyotni o’zida ifoda etadi. Xususan IX-XII asrlarda mavjud deyarli barcha fan yunalishlarida qomusiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mahsuli o’laroq juda ko’plab asarlar yaratiladi. Aynan ilm-fan taraqqiyoti davridagi fanning ko’p sohalarini chuqur o’rgangan, sermahsul va samarali ilmiy faoliyat olib borib, o’zining ilmiy-nazariy, hamda amaliy faoliyatida bilimlarini qo’llashi orqali o’z zamonasidan ancha ilgarilab ketgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir.

Abu Ali ibn Sino nafaqat tabobat ilmining bilimdoni, balki Markaziy Osiyoda o’rta asrlar falsafiy nazariyasini asoslab bergan buyuk faylasuf ekanligi ilm ahllariga ma’lumdir. Allomaning falsafa va mantiqqa oid falsafiy asarlari miqdori ko’p, ammo eng muhimlari “Kitob ash-Shifo”, “Kitob an-Najot”, “Donishnama”, “Tadbiri manzil”, “Aqliy bilimlar tasnifi”, “Ahd risolasi”, “Risola fi l ishq”, “Mabda va maod”, “Al-ishorot va tanbihot” kabilar, hamda bir qator falsafiy qissalari hisoblanadi. Mazkur asarlarda Ibn Sino tomonidan ontologiya, gnoseologiya, substansiya, inson axloqi kabi falsafiy, shuningdek kosmologiya, pedagogika, psixologiya, mantiqqa oid masalalar tahlil qilinadi. Shu o’rinda Ibn Sinoning aynan bilish nazariyasi xususida fikr yuritishni maqsad etdik. Ustoz faylasuf M.Boltayevning risolasida allomaning bilish haqidagi ta’limotini tahlil qilib “Abu Ali ibn Sino o’zining “Ash-Shifo” asarining birinchi bobida shunday bir sharoitni tasvir etadiki, undan kelib chiqadigan isbotni talab etmaydigan aniq xulosa uning bilish nazariyasi uchun poydevor sifatida xizmat qiladi”² deya mulohaza yuritadilar.

Insondagi mavjud bir qator qobiliyarlar olamni bilishidagi eng muhim imkoniyatlardir. Olamni anglashda hissiy bilishdan aqliy bilishga tomon o’tish mantiqiy fikrlash, dalillarni asoslash, asosli xulosa chiqarish, obyektni to’g’ri izohlash natijasida kelib chiqadi. Bilish jarayoni, uning bosqichlari, hissiy va aqliy bilish o’rtasidagi uzviy aloqadorlik borasidagi qarashlarini Ibn Sino nafaqat yirik asarlarida, balki kichik falsafiy qissalarida ham tahlil qiladi. “Hayy ibn Yaqzon” ana shunday falsafiy qissalaridan biri bo’lib, unda borliq, uning turlari, substansiya, ilm, koinot ya’ni astronomik masalalar, inson xulq atvori, shuningdek bilish masalalari ham tahlil qilingan. Qissada falsafiy masalalar sunbat shaklida timsoliy ifoda etilganligi bois fikrlarni birdan tushunish mushkulroq. Imkon qadar timsoliy ifodalardagi bilish haqidagi tahlillarni sharhlashga harakat qildik. “Rassomlar tasvirlaydigan suratlar o’sha yurtdan olib kelinganligi ehtimoldan uzoq emas. Bu yurtda g’olib kelgan podsho beshta pochta-aloqa yo’li o’rnatgan”³. “Beshta pochta-aloqa”-bu bilan Ibn Sino kishidagi besh his: eshitish, hidlash, ko’rish, ta’m bilish, sezishni ifoda etadi. Shuningdek dunyoni bilishda inson idroki va ko’z

¹ O’zRFA I.Mo’mnov nomidagi Falsafa va Huquq instituti Falsafa ensiklopedik lug’at “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent.2010 yil, 52-bet

² Muhammad Boltayev. Abu Ali Husayn ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta’limoti. “Buxoro” nashriyoti. 2001 yil, 11-bet

³ Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. O’zbek klassiklari kutubxonasi. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.Toshkent.1963 yil, 42-bet.

ko'rishining olamdagi hodisa va narsalarni bilishdagi ahamiyatiga ham to'xtaladi ya'ni "agar mashriq tomonga yo'nalsang, quyosh shaytonning ikki shoxi o'rtasidan chiqishini ko'rasan. Chunki shaytonning ikkita shoxi bor: ulardan biri uchadi, ikkinchisi yuradi"⁴. Bunda Ibn Sino birinchisi bilan inson idrokini nazarda tutib, idrok masofa uzoqligidan qat'iy nazar narsalarga bir zumda yetadi, ikkinchisi orqali esa insonning narsalarni ko'z bilan ko'rish xususiyatini ta'kidlaydi.

Ibn Sino inson bilishining bilmaslikdan bilim sari rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o'tishini qissada chiroqli timsollar bilan ifodalaydiki, bu insonda fikrlarning falsafiy mazmunini anglashga yanada rag'bat uy'g'otadi. Bilishning hissiy bilishdan aqliy bilishga o'tishida insonning beshta sezgisi beradigan axborotlar, hamda obyektni to'la ta'riflab, hodisadan mohiyatni anglashga yo'l ochuvchi ilmiy dalillarni tahlil qilishni, dalillar asosida obyektga xos belgilarni mantiqiy isbotlashni quyidagi timsollar orqali ifodalaydi. Beshta pochta-aloha yo'lini o'rnatgan podshoni nazarda tutib, "Shuningdek, u o'sha mamlakat uchun qurolxonalar qurgan va unga qurolli kishilarни qo'ygan. Bular olam ahlidan birortasi borib qolguday bo'lsa, uni shartta tutib oladilar va o'zlariga yetgan barcha xabarlarni o'sha orqali isbotlaydilar"⁵.

Abu Ali ibn Sino beshta sezgi a'zolari beradigan axborotlar asosida dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydi. Ayni vaqtida qissada insonning his orqali bilib bo'lmaydigan narsalari ham mavjudligini quyidagicha talqin qiladi "Yurt podshosi qo'ygan qurolli kishilar asirlarni mamlakat eshidiga posbonlik qiluvchi o'sha beshta pochtaning boshlig'iga topshiradilar. U asirlarda yashirincha muhrlangan yozma xabarlar bo'ladi, lekin undan boshliq ham xabardor bo'lolmaydi"⁶.

Bilish jarayonida o'rganilayotgan obyektning xususiyatlari, belgilari, xossalari, ichki bog'lanishlari haqidagi axborotlari ya'ni bilimlari inson xotirasida saqlanadi. "Xotira-in'ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmisht tajribalarini esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon, tasavvur va tushunchalarning hissiyotdan so'ng saqlanib qolishi. Fikrlash jarayonida xotira bo'limganda inson xulosa, hukm chiqara olmas, empirik hayotdan boshqani bilmas edi"⁷. Xotiraning inson bilishidagi ahamiyati yuqori ekanligini hisobga olgan faylasuf qissada "Mudirning vazifasi maktublarning (asirlar qo'lidagi yashirincha yozma xabarlar nazarda tutilgan) barchasidan podshoni ogoh qilish uchun xazinachiga yetkazishdir. Asirlarga esa, mana shu xazinachi qarab turadi"⁸. Bu fikrda Ibn Sino "asir"ni-insonga bilinib ma'lum bo'lgan narsa, axborot, bilim sifatida, ushbu axborotni saqlab qoluvchi inson xotirasini esa "xazinachi" tarzida ifodalaydi. Bilimlar shakllanishi uchun o'rganilayotgan obyekt haqidagi axborotlarni xotirada saqlanishigina insonga obyektning mohiyatini to'laqonli ochib berilishida yetarli emasligiga alloma alohida to'xtaladi. Ibn Sino insonga ma'lum bilib olingan bilimlarga xazinachi qarab turishini "lekin ularning qurollari esa boshqa xazinachiga saqlab turishga

⁴ Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. O'zbek klassiklari kutubxonasi. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent. 1963 yil, 43-bet.

⁵ Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. O'zbek klassiklari kutubxonasi. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent. 1963 yil, 43-bet.

⁶ Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. O'zbek klassiklari kutubxonasi. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent. 1963 yil, 43-bet.

⁷ O'zRFA I.Mo'minov nomidagi Falsafa va Huquq instituti Falsafa ensiklopedik lug'at "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010 yil, 294-bet

⁸ O'sha asar. 43-bet

beriladi”⁹ deya ta’kidlashi orqali obyektning xossa, belgilar haqidagi dalillari, axborotlari mantiqiy usullar asosida tahlil etilishini aytib o’tadi. Shuningdek mazkur tahlillar natijasida inson tafakkur bilan bir narsani bilgach, so’ng uni ifodalab, til orqali tushuntirib berilishini nazarda tutadi. Alloma tomonidan borliqni o’rganish va tushunish aniq ilmiy-mantiqiy asosga ega bo’lishligi g’oyasi faqat asarlaridagina ilgari surilmasdan, o’zining ilmiy faoliyatida nazariy va amaliy jihatdan to’la qo’llanildi. Mislsiz salmoq va ilmiy ahamiyatga molik Ibn Sino ilmiy merosi buning yaqqol dalilidir.

Buyuk faylasuf Ibn Sino aqliy bilish qonuniyatlarini tahlil qilish bilan bir qatorda olamni bilishning kashf yo’li ham mavjudligini ta’kidlaydi. Insonlarda dunyoni bilishdagi hissiy va aqliy bilish imkoniyatlaridan tashqari, ma’naviy-ruhiy barkamollik darajasidan kelib chiqib, ruhiy kuzatish, nazorat, muroqaba asosida bilish-kashf etish qobiliyatlariga ham egaligini ta’kidlaydi. Ibn Sino nazarda tutgan “kashf yo’li-his va aql yo’li bilan idrok etish mumkin bo’lmagan haqiqatlarni qalb ko’zi ila ko’rish”¹⁰ bo’lib, kashf tasavvuf ta’limotida bilishning ma’lum darajasi hisoblanadi. Ayni vaqtda tasavvuf ahli bilishning falsafiy yo’llari-tasavvur, his, mantiqiy tafakkur va hokazolarni ham eslab o’tadilar. Ibn al-Arabiy inson bilimlarini uchga bo’lgan: birinchisi-aqliy-hissiy bilimlar, ikkinchisi-hol ilmi(holat, mahol ilmi ham deydi u). Uchinchisisirru asror ilmi¹¹. Bu fikrlarida Ibn al-Arabiy birinchi ilm zohiriylar (ya’ni aql, dalil va tajriba asosida hosil qilinadigan dunyoviy-diniy bilimlar) bilan shug’ullanadigan kishilar ilmini, ikkinchi ilm hol martabasiga ko’tarilgan so’fiylar ilmini, ya’ni vajd holatida kashf etilgan ilmni nazarda tutgan. Uchinchi ilm-avliyolar ilmi. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, shu’la-nur ko’rinishida qalbga kiradi. Abu Ali ibn Sinoning bilish masalasi haqidagi qarashlari bir tomonidan buyuk allomaning nazariy va amaliy asosdagи tabiiy-ilmiy kashfiyotlari asosiga tayansa, ikkinchi tomonidan esa mutasavviflardek “Laduniy ilm” orqali voqelikni, olamni sir asrorini anglashga yo’naltiruvchi bilimlar ham mavjudligini ifoda etadi. Tasavvuf ta’limotiga ko’ra “Ladun-g’ayb ilmi, ilohiy asrorni o’rgatuvchi ilm”¹² sanalib, laduniy ilm Allohnинг xos bandalariga yuboriladigan rabboniy bilimdir. “Mabda va maod” nomli asarida qat’iylik bilan yozadiki, nihoniy, asroriy olam havodislari borasida faqat “didai basirat”-la, ya’ni olamning ichki, botiniy jihatlarini ko’radigan qalb ko’zi-la-ruhiy ko’z bilan mushohada etish natijasida barcha haqiqiy bilim hosil bo’la oladi. Men, deydi mutaffakkir, uyg’oqligimda yecha olmagan ko’pchilik muammolarni, mushkul masalalarni tush ko’rish, ro’yo vositasi bilan hal etganman”¹³. Demak faylasuf kashfiy yo’l bilan bilishning yuqori darajasiga yetgan oriflar mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish orqali aniqlash mumkin bo’lmagan nihoniy olamdagi botiniy hodisalarni ilohiy hol, ilhom, zehn asosida olam asrorini ochib beruvchi bilimlarga ham ega bo’lishligini o’z qarashlarida qayd etadi. Falsafaning bilish nazariyasida bilishning hissiy, aqliy, ilmiy-mantiqiy,

⁹ O’sha asar. 43-bet

¹⁰ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot (Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va Aziza Bektosh) T.: “Movarounnahr”. 2004. 225-bet

¹¹ Iqtibos Najmiddin Komilov. Tasavvuf kitobidan olindi, “Movarounnahr”, “O’zbekiston” nashriyoti.T. 2009, 39-bet

¹² Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot (Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va Aziza Bektosh) T.: “Movarounnahr”. 2004. 225-bet

¹³ Muhammad Boltayev.Abu Ali Husayn ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta’limoti. “Buxoro” nashriyoti. 2001 yil, 11-bet

intuitiv, ijtimoiy bilish kabi turlari tadqiq etilgan bo'lsada, Ibn Sino nazarda tutgan kashfiy yo'l bilan olamni bilish, bilimlarni qo'lga kiritish jarayoni hali o'rganilganicha yo'q.

Umuman olganda Markaziy Osiyo Uyg'onish davrida tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy bilimlar sohalarida yuzaga kelgan ilmiy nazariyalar, gipoteza, ilmiy farazlar, g'oyalar o'zining ko'lami bilan ahamiyatlici, ushbu davrda yaratilgan ilmiy meros nafaqat o'z davri, hatto bugungi kunda ham ilm-fan rivojidagi juda ko'plab ilmiy g'oyalar yuzaga kelishining asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zRFA I.Mo'minov nomidagi Falsafa va Huquq instituti Falsafa ensiklopedik lug'at "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010 yil
2. Muhammad Boltayev. Abu Ali Husayn ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta'limoti. "Buxoro" nashriyoti. 2001 yil
3. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. O'zbek klassiklari kutubxonasi. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent. 1963 yil
4. Shayx Najmuddin Kubro. Tasavvufiy hayot (Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va Aziza Bektosh) T.: "Movarounnahr". 2004 yil
5. Najmuddin Komilov. Tasavvuf. "Movarounnahr", "O'zbekiston" nashriyoti. T, 2009 yil